

## Toshkent shahrida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari <sup>1</sup>

2026-yil yanvar-aprel oylari


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini tumanlar kesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

### I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2026-yil yanvar-aprel oylarida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **161 739,0** mlrd so'mni tashkil etdi. 2025-yil mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **118,2** % ni tashkil etib, uning hajmi esa **33 219,7** mlrd so'mga o'sishi qayd etildi.

*Ma'lumot uchun: 2025-yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar hajmi **128 519,3** mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa **117,2** % ni tashkil etgan.*

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2025-yilning aprel oyiga nisbatan (**41 184,2** ming so'm) 2026-yilning mos davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **9 565,4** ming so'mga yoki **15,7** % ga o'sib, **50 749,6** ming so'mni tashkil etgan.

2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **69 122,3** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **42,7** % ini, jumladan, **34,4** % ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

<sup>1</sup> 2025- yil yanvar oyi hajmi va 2026- yil yanvar oyi uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.



## II. Xizmatlar sohasini tumanlar kesimida rivojlanishi

Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari  
2026-yil yanvar-aprel oylari

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
<b>Toshkent shahar. <sup>2</sup></b>	<b>161 739,0</b>	<b>100,0</b>	<b>118,2</b>
Uchtepa	6 853,3	4,2	118,8
Bektemir	3 166,7	2,0	118,2
Yunusobod	21 905,9	13,5	118,0
Mirzo Ulug'bek	13 243,2	8,2	120,5
Mirobod	14 204,4	8,8	121,8
Shayxontohur	14 911,8	9,2	121,4
Olmazor	10 686,9	6,6	120,1
Sirg'ali	5 311,7	3,3	117,8
Yakkasaroy	11 493,9	7,1	119,7
Yashnobod	8 020,6	5,0	120,4
Yangiheyat	2 334,9	1,4	119,6
Chilonzor	15 680,2	9,7	119,5

### Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tumanlar kesimidagi hajmi](#)

Yunusobod tumani (**13,5 %**) yuqori ulushni tashkil qiladi, u Toshkent shahrining eng yirik tumanlaridan biridir. Unda xalqaro tashkilotlar, banklar va yirik kompaniyalar jamlangan bo'lib, tabiiyki, aholi zichligi transport, savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash, hordiq chiqarish kabilarga bo'lgan talabni oshiradi. Yunusobod tumanida transport tizimi, savdo va biznes markazlari hamda boshqa yirik obyektlarga ega tumandir, bu esa xizmatlar sohasining tobora rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

## III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida moliyaviy xizmatlar **17,4 %** ga (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga hissassi **2,6** bandni tashkil etdi), transport xizmatlari **20,2 %** ga (o'sishiga hissassi **2,3** band), yashash va ovqatlanish xizmatlari **16,7 %** ga (o'sishiga hissassi **1,7** band), savdo xizmatlari **14,8 %** ga (o'sishiga

<sup>2</sup> Tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda.



hissasi **2,4** band), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **25,6** % ga (o'sishiga qo'shgan hissasi **2,1** band) va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **20,2** % ga (o'sishiga hissasi **0,4** band) asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-aprel oylari)

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, %
	2025- y.	2026- y.	
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>128 519,3</b>	<b>161 739,0</b>	<b>118,2</b>
<i>shundan:</i>	-	-	
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	17 195,4	23 000,3	125,6
moliyaviy xizmatlar	29 892,6	37 912,4	117,4
transport xizmatlari	12 134,4	15 239,2	120,2
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	4 637,8	5 845,0	115,5
yashash va ovqatlanish xizmatlari	9 882,3	12 664,2	116,7
savdo xizmatlari	32 546,6	39 284,4	114,8
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	4 691,1	5 665,6	120,2
ta'lim sohasidagi xizmatlar	5 810,5	7 526,3	123,7
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2 714,2	3 334,5	114,7
ijara xizmatlari	1 466,3	2 022,0	128,9
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	503,0	628,3	119,7
shaxsiy xizmatlar	1 097,0	1 394,1	115,8
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	2 315,5	2 845,8	111,8
boshqa xizmatlar	8 270,5	10 222,0	113,6


**Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:**

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2026-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida moliyaviy xizmatlar **23,4** %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **14,2** %, savdo xizmatlari **24,3** %, transport xizmatlari **9,4** %, yashash va ovqatlanish xizmatlari **7,8** %, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **4,7** % ulushini tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida moliyaviy xizmatlar **23,3** foiz, savdo xizmatlari **25,3** foiz, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **13,4** foiz, transport xizmatlari **9,4** foiz, yashash va ovqatlanish xizmatlari **7,7** foiz, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **4,5** foiz ulushni tashkil etgan.


**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi**  
2026-yil yanvar-aprel oylari, %



**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari** hajmining o'sishiga **kompyuter dasturlashtirish xizmatlarining** o'sishi ta'sir ko'rsatdi. 2026-yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdagi xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **55,1** foizni tashkil etdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan esa **34,4** foizga o'sgan.

2026-yil yanvar-aprel oylarida **moliyaviy xizmatlar** tarkibidagi **sug'urta xizmatlarida** pasayish kuzatildi. 2025-yilning mos davriga nisbatan hajmi **1 250,6** mlrd so'mga yoki **49,7** foizga pasayish kuzatilgan.

Sug'urta xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2026-yilning tahlil qilinayotgan davrida transport sohasida **havo transporti xizmatlari (155,9 %), pochta va kuryerlik (108,8 %)** xizmatlarida yuqori o'sish sur'ati qayd etildi. Elektron tijoratning rivojlanishi (*OZON, Wildberries, AliExpress, mahalliy bozorlarda onlayn xaridlarning ko'payishi*), **Express24, MyTaxi Delivery, Yandex Go, Uzum Tezkor** va boshqa xususiy tashkilotlarning paydo bo'lishi, logistika infratuzilmasining takomillashtirilgani pochta va kuryerlik xizmatlariga bo'lgan talabni oshishiga turtki bo'ldi. Aeroportlarni modernizatsiya qilish imkoniyatini oshirish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga imkon beradi, bu esa o'z navbatida omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Toshkent shahrida **yashash va ovqatlanish xizmatlarining** rivojlanishi sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda, bu sayyohlar oqimining ko'payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog'liqdir. Ushbu xizmatlarning o'sishiga **oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **83,8 %** ni tashkil etdi. 2026-yil yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati **122,5 %** ni tashkil etdi.

#### **IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar**

##### **Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:**

a) tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirma va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar bo'yicha statistik hisobot (ro'yxat bo'yicha);

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;



d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu** – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekt bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar** (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

## **V. Foydali havolalar**

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)

---

**Chiqarish uchun javobgar:**  
Xizmatlar va savdo sohasi  
statistikasi bo'limi

**Manzil:** 100047, Toshkent shahar,  
Amir Temur shoh ko'chasi, 11-uy  
**Pochta:** info@toshstat.uz  
**Tel.:** 71-203-80-03 ichki 3590/3592

